

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vaziri
Sh.X.Shermatovning fuqarolarga
MUROJAATI

Hurmatli soha xizmati foydalanuvchilari !!!

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan xalqchil va keng islohotlar natijasi o‘laroq, Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaning oldini olish, uning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Soha xizmatlarini ko‘rsatishda, inson omilini minimallashtirishga alohida e‘tibor qaratilib, sub‘ekt tomonidan qaror qabul qilinishini oldini olish maqsadida proaktiv va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, inson omilini minimallashtirish maqsadida barcha davlat xizmatlari markazlashtirilgan "Yagona Platforma", davlat mablag'larining qayerga sarflanganligini ko'rish imkoniyatini beruvchi "Ochiq Budjet", hujjatlarning haqiqiylikini kafolatlovchi "Elektron Imzo", soliq to'lovchilar uchun shaffof hisobotni ta'minlovchi "Mening Solig'im" kabi tizimlar ishga tushirildi.

Bularning barchasi korrupsiya xavfini kamaytirishga hizmat qiladi.

Kelajakda Blockchain texnologiyalarini joriy etish, sun'iy intellekt yordamida riskli operatsiyalarni aniqlash, raqamli audit tizimini takomillashtirishni hamda xalqaro hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashishni o‘z oldimizga maqsad qilganmiz.

Agar siz korrupsiyaning har qanday ko‘rinishi namoyon bo‘lishiga duch kelsangiz yoki guvoh bo‘lsangiz, bunday noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish hamda bartaraf etish uchun zudlik bilan bu haqda xabar berishingizni so‘raymiz. Biz sizni korrupsiyaga qarshi kurashda birgalikda harakat qilishga chorlaymiz. Mazkur yo‘nalishda Siz foydalanuvchilar bilan birgalikda faoliyat olib borsak, albatta korrupsiyaviy holatlarni bartaraf eta olamiz.

Shu o‘rinda, korrupsiyaviy holatlarga Sizlar ham sababchi va ishtirokchi bo‘lib qolmasligingizni so‘rab qolaman!!!

Jumladan, korrupsiya haqidagi ma’lumotlarni elektron ko‘rinishda vazir virtual qabulxonasi orqali yoki yozma ravishda quyidagi manzillarga yuborishingiz mumkin: 100164, Toshkent shahri, Ibrohim Muminov ko‘chasi, 4.

Jamoatchilik bilan bevosita muloqot o‘rnatishni ta‘minlovchi ijtimoiy tarmoqlar orqali bir qator aloqa kanallari ishlab kelmoqda.

Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy mahkamasining boshqarma va bo‘limlari, tizim tashkilotlari, shuningdek, hududiy sho‘balarida uchrashi mumkin bo‘lgan korrupsiya holatlari haqidagi ma’lumotlarni quyidagi havolalarga jo‘natishingiz yoki ishonch telefon raqamlariga aloqaga chiqishingiz mumkin:

T/r	Aloqa kanali turi	Aloqa kanali manzili (havolasi)	Tashkil etilgan vaqti
1.	Elektron pochta	anticor@digital.uz, info@digital.uz	2024-yil
2.	Ishonch telefon raqamlari	+998 55 501-36-72	2023-yil
		1199	2019-yil
3.	Faks	+99871 239-87-82	2019-yil
4.	Rasmiy veb-saytdagi aloqa kanali	https://digital.uz/oz/anti-corruption https://digital.uz/pages/contacts/	2025 yil 2022-yil
5.	E-xat	digital@exat.uz	2022-yil
6.	Telegram messenjeridagi aloqa kanali	https://t.mc/mitcuz	2017-yil
8.	Facebook ijtimoiy tarmog'idagi aloqa kanali	https://ww-w.facebook.com/mitc.uz/ , https://www.facebook.com/mininfocom/	2017-yil
9.	Instagram	https://www.instagram.com/mitc.uz/	2017-yil
10.	Twitter	https://twitter.com/uz_mitc	2017-yil
11.	Youtube	https://www.youtube.com/c/MinistryofIntegrityofUzbekistan	2017-yil

Yuborilgan xabarlar belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi hamda murojaat qiluvchining shaxsi sir saqlanishi kafolatlanadi.